

YANGI O‘ZBEKISTONDA XALQ BILAN MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘LLARI VA IMKONIYATLARI

Aymatov Aminjon Qudratovich,
Samarqand davlat universiteti f.f.d. (DSc)
E-mail: aminjonaymatov@mail.com

Turayeva Dildora Shuhratovna,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti o‘qituvchisi
E-mail: dildoraturayeva865@mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada, bugungi kunda xalq bilan muloqot madaniyatini rivojlantirishning asosiy yo‘llari va uning imkoniyatlari yoritilgan. Bugungi kunda barcha davlat organlari faoliyatida “xalq dardiga quloq solish”, muammolarni joyida hal etish va xalqni rozi qilish bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Inson manfaatlarini ta‘minlash uchun, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu-tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyohlarini yaxshi bilish kerak. Davlatimiz tomonidan xalq bilan muloqot madaniyatining ijtimoiy kompromissga erishishdagi yo‘llari ishlab chiqildi. Bugun shiddatkor davr davlat va jamiyat tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, barcha rahbarlarning mas‘uliyatini oshirish, hokimiyat organlari bilan xalqning yaqinligini ta‘minlashni taqozo etmoqda.

Kalit so‘zlar: muloqot, madaniyat, tarix, muloqot san‘ati, axloq, ma‘naviyat, ijtimoiy-falsafiy, etnoestetik, tarix, mustaqillik.

Аннотация. В данной статье освещаются основные пути развития культуры общения с народом на сегодняшний день и ее возможности. Сегодня во всех государственных органах ведется эффективная работа по "прислушиванию к нуждам народа," решению проблем на местах и обеспечению удовлетворенности населения. Для обеспечения интересов человека прежде всего необходимо общаться с людьми, с народом, хорошо знать их заботы, чаяния, жизненные проблемы и потребности. Нашим государством разработаны пути достижения социального компромисса в культуре общения с народом. Сегодня стремительно меняющееся время требует дальнейшего совершенствования системы государства и общества, а также повышения ответственности всех руководителей, обеспечения близости органов власти и народа.

Ключевые слова: общение, культура, история, искусство общения, мораль, духовность, социально-философское, этноэстетическое, история, независимость.

Abstract. This article highlights the main ways to develop a culture of communication with the people today and its potential. Today, effective work is being carried out in the activities of all state bodies to "listen to the people's concerns," solve problems on the spot, and satisfy the needs of the people. In order to ensure human interests, it is necessary, first of all, to communicate with people, with the people, to know their concerns, dreams and aspirations, life problems and needs. The state has developed ways to achieve social understanding of the culture of communication with the people. Today's rapidly changing times require further improvement of the system of state and society, as well as increasing the responsibility of all leaders, ensuring the proximity of government bodies to the people.

Keywords: communication, culture, history, art of communication, morality, spirituality, socio-philosophical, ethno-aesthetic, history, independence.

Kirish. Xalqimizning farovon yashashi uchun munosib sharoit yaratish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri isoblanadi. Zero, Yangi O‘zbekistonni barpo etish tub tarixiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy hamda aksiologik asoslarga ega bo‘lgan, shuningdek, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruriyatdir. Buning uchun barcha kuch va

imkoniyatlarni, butun azm-u shijoatimizni ishga solishimiz zarur. Shundagina mamlakatimiz, xalqimiz orzu qilgan, jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan, har tomonlama obod va farovon davlatga aylanadi.

Mamlakatimizda tarixan juda qisqa vaqtda (mustaqillik yillarida) mazmunan asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yurtimizda keyingi yillarda xalq bilan muloqot qilish, barcha islohotlarni xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish masalasi asosiy kun tartibiga qo‘yilganligini alohida ta‘kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bugungi kunda Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ish boshlagan Xalq qabulxonalari inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlashning tayanch nuqtasi, davlat idoralari va xalq o‘rtasida ishonch ko‘prigi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur bobda, Yangi O‘zbekistonda xalq bilan muloqot madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy yo‘llari va imkoniyatlarini yoritib berishga harakat qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Har bir jamiyat tarixida, taraqqiyot bosqichlarida shunday burilish davrlari yuzaga keladiki, mazkur davrda taraqqiyot yo‘lidan borayotgan xalqlar taqdiri uchun nihoyatda muhim strategik maqsadlar hamda ustuvor tamoyillarni ishlab chiqish zaruriyatga aylanadi. O‘ziga xos yangi davr, shuningdek, sharoit va vaziyatga aylanib qolgan qarashlar, g‘oyalar, munosabatlarini o‘zgartirmasdan, ma‘lum mafkuraga asoslanmasdan yangi maqsadlar sari qadam tashlay olmaydi. Bu esa yangi tuzum, yangicha qarash, munosabat, mafkurani ishlab chiqishni talab qiladi.

Mamlakatimizda 2017-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon zamonaviy jamiyat qurish talablarini yaqqol ifodalaydi. Bu farmon asosida shakllanayotgan yangicha tafakkur va zamonaviy dunyoqarashning ma‘no-mazmunini xalqimizning istiqloлга erishish jarayoni, O‘zbekiston tanlab olgan taraqqiyot modelining mohiyati, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish, bu jarayonga xos qonuniyatlar va xususiyatlar bilan bog‘liq holda chuqur falsafiy tahlil qilish, yosh avlodning qalbi va ongiga vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini singdirishga xizmat qiladi. Zero, “...bugungi kun globallashuv asrida, birinchi navbatda erishgan natijalari bilan kifoyalanmasdan, dunyoda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar jarayonidagi o‘z o‘rniga haqqoniy va tanqidiy baho beradigan, davrning tobora ortib borayotgan talablariga uyg‘un va hamohang bo‘lib qadam tashlaydigan mamlakatgina muvaffaqiyat qozonishi mumkin”. Demak, bugungi kunda mamlakatimiz qiyofasida qanday o‘zgarishlar yuz berayotgani, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida qanday yutuq va kamchiliklar qo‘lga kiritilayotganligi haqida fikr yuritish jamiyatimizning har bir a‘zosini o‘ylantirayotgan masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy va tizimli yondashuvlar asosida xalq bilan muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayonlari kompleks tahlil qilindi. Ilmiy izlanishda normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda ilmiy adabiyotlar kontent-tahlil usuli orqali o‘rganilib, qiyosiy va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Shuningdek, empirik umumlashtirish asosida mavjud tajribalar tizimlashtirilib, muloqot madaniyatini takomillashtirishning samarali yo‘llari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tahlillar va natijalar. Ma‘lumki, davlatning, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy, demokratik hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini yo‘lga qo‘yish zarur. Bu tizimni rivojlantirish uchun mamalakatimizda keyingi yillarda qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Virtual qabulxonalar ish boshlaganiga qadar mamlakatimizda davlat organlarining “Ishonch telefoni”, “Yagona interaktiv davlat xizmatlari” portali mavjud edi. Ammo bu tizimlar faoliyati xalq bilan muloqot olib borishda yetarli darajada natija bera olmaganligidan kelib chiqib, mamlakatimizda xalq bilan muloqot olib borishning yangi tizimini shakllantirish zarurati yuzaga keldi. Shu maqsad yo‘lida 2017-yil O‘zbekiston Respublikasida “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” deb e‘lon qilindi. Va mazkur yildan boshlab xalq bilan muloqot olib borishda yangi islohotlar amalga oshirildi.

Yilning bunday nomlanishi zamirida davlat organlarining xalq bilan munosabatlarini yanada mustahkamlash, shuningdek, fuqarolarning murojaat qilish huquqlarini kafolatlash va mavjud muammolarni oqilona hal etish maqsadlari mujassam edi. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “2017-yil xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dard-u tashvishlari, hayotiy muammolarini samarali hal etish bo‘yicha yangi tizim yaratilgan yil bo‘ldi, deb aytishga to‘la haqlimiz”. O‘zbekiston Respublikasida “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” munosabati bilan Davlat dasturi ishlab chiqildi. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” Davlat dasturi loyihasiga bir qator muhim ustuvor vazifalar belgilandi. Bu dastur 5 bo‘lim va 320 banddan iborat bo‘lib, unda muhim strategik vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, bu dasturda aholiga talab katta bo‘lgan davlat xizmatlarini “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha bir muassasa orqali ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilindi. “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish borasida ham choralar ko‘rildi. Vaholanki, “Kasbiy soha vakillarining xalq bilan muloqot qilishdagi eng asosiy masala – bu har bir insonning dilida nimalar kechayotganini, ularni amalga oshirish uchun kimlar xalaqit berayotganligini, hayotda nimadan roziyu, nimadan norozi ekanligini, ayniqsa, tinch yashash, halol mehnat qilish uchun nimalar yetishmayotganligini bilib olishdan, so‘ngra shunga qarab ish yuritishdani borat” dir. Bugungi kunda xalq bilan samarali muloqot olib borishda eng ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ham keng joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan ham, mamlakatimizda “Bu sohada qabul qilingan Milliy dasturga muvofiq, telekommunikatsiya texnologiyalarini, aloqa tizimlari va infratuzilmasini yanada rivojlantirishimiz, informatsion tizimlar komplekslari va “Elektron hukumat” axborot bazasini shakllantirishimiz kerak” edi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ni “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini”

yilida amalga oshirishga oid Davlat statistika qo‘mitasining kompleks chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi. Bu chora-tadbirlar rejasining har bir bandi bo‘yicha tegishli mas‘ul ijrochilar belgilandi va ularning ijrosi nazoratga olindi. Bu qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar yaqin o‘tmishdagi islohotlar mohiyatini ifodalasada, bugungi kun uchun asosiy fundamental ustun, tayanch vazifasini bajarib kelmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti ta’kidlaganidek: “Bugun hayotimizning o‘zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta‘minlash uchun eng avvalo odamlar bilan muloqot qilish, uning dard-tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilishi kerak. Shuningdek, asosiy qonunimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishga, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o‘rin egallamoqda”. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilgan yangi islohotlar zahirida tashkil etilgan “virtual qabulxonalar”, “Xalq qabulxonalari” orqali minglab yurtdoshlarimizni qiynab kelgan muammolarining o‘z yechimini topgani va bundan buyon ham topayotganligi bunga yaqqol misoldir. Vaholanki, “Xalq bilan uzluksiz muloqot va inson manfaatlari uchun xizmat qilish, barcha darajadagi rahbarlar uchun nafaqat majburiyat, balki hayotiy tamoyilga aylanishi shart” – deya ta’kidlaydi, Shavkat Mirziyoyev. Darhaqiqat, o‘zaro muloqotsiz insonning ichki kechinmalarini, orzu-istaklarini anglab olish mumkin emas.

Shu o‘rinda, xalq bilan olib boriladigan muloqot jarayoni ham bir qancha turlar, yo‘nalishlar doirasida amalga oshirilishini alohida qayd etish lozim. Jumladan, “Kasbiy soha xodimlarining bevosita xalq bilan bo‘ladigan muloqot turlariga quyidagilar: 1) bevosita; 2) bilvosita; 3) rolli; 4) mazmunli; 5) rasmiy; 6) norasmiy muloqot shakllari kiradi”. Mazkur tur va shakllar xalq bilan olib boriladigan muloqotning samaradorligini belgilab beradi.

Mamlakatimizda har bir sohada davlat tomonidan belgilab berilgan aniq va samarali tizim va standartlar asosida ish tutish amaliyoti keng joriy etilmoqda. Hozirgi vaqtda davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bosqichlarida tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom, qabul qilinayotgan har bir qonun, farmon va qaror, joriy etilayotgan yangilikka ongli munosabat birinchi o‘ringa chiqib, ishchanlik muhiti keng qaror topib borayotganiga barchamiz guvoh bo‘lmoqdamiz. Bugun milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan bir davrda yutuqlarimiz bilan birgalikda xato va kamchiliklarimizni ham chuqur tahlil qilib, ularni bartaraf etish haqida bosh qotirishimiz zarur. Chunki bu ishlarni bartaraf etmasak, hech kim chetdan kelib muammolarimizni hal qilib bermaydi.

Yurtimizda xalq bilan muloqotning mutlaqo yangi va samarali tizimi joriy qilinganini aytish o‘rinli deb o‘ylayman. Bugungi kunda xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qila boshlagani uchun ham odamlarning fikri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda, el-yurtimiz o‘z kuchi va imkoniyatlariga, ertangi kunga ishonch bilan qaramoqda. Zero, Bosh Qomusimizningda ham, “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar fuqarolar

oldida mas'uldirlar" – deya ta'kidlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda davlat organlari va mansabdor shaxslarning oddiy fuqarolar bilan o'zaro muloqotlariga katta e'tibor beriladi. Bu muloqot yordamida barcha yurtdoshlarimizning haq-huquqlari himoya qilinishiga, bir so'z bilan aytganda jamiyatda adolat qaror topishiga katta ahamiyat berilmoqda.

Tarixdan bizga ma'lumki, odamlarning hayotiy ehtiyoji hamda ularning manfaatlarini ta'minlash dolzarb muammolardan biri hisoblangan. Hattoki muqaddas dinimizda ham xalq manfaati va adolat mezonlari haqida to'xtalib o'tilgan. Aslini olganda, odamlar orasida adolat bilan hukm yurg'izish Alloh taoloning buyrug'i hisoblanadi. Bu haqda Qur'oni karimda shunday yoziladi: "Darhaqiqat Alloh omonatni o'z egalriga topshirishingiz va odamlar o'rtasida hukm qilganingizda adolat bilan hukm qilishingizga buyurar". Muqaddas dinimizda adolat bilan ish yuritgan, xalqning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'ygan rahbarlarga ulkan ajr-mukofotlar va'da qilingan. Bu haqda ko'plab hadisi shariflarda xabar berilgan. Bu borada ushbu rivoyatni keltirib o'tishni joiz topdik.

Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzuriga kelib: "Allohga eng sevimli kishi kim?" va "Allohga eng sevimli amal qaysi?" – deb so'radi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Allohga eng sevimli kishi odamlarga ko'proq manfaati tegadigan kishi. Allohga eng sevimli amal musulmonning qalbiga xursandchilik kiritish, yoki uning tashvishini aritish, yoki qarzini o'tash, yoki undan ochlikni ketkazish. Men bir do'stimning ehtiyoji uchun yurishim, ushbu masjid – Masjidun nabaviyda e'tikof o'tirishimdan yaxshiroqdir" – dedilar. Bu rivoyatdan ko'rinib turibdiki, insonlarni hojatini chiqarish muqaddas dinimizda ham ulug'langan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qachonki, xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yilsa, jamiyat va davlat taraqqiy etadi. Buning uchun esa, avvalo, davlat organlari va mansabdor shaxslar xalq manfaatlarini qondirishi, ularning maqsad va muddaolaridan xabardor bo'lishlari, shuningdek, ular bilan doimiy ravishda muloqot qilishlari zarur. "Endilikda inson, uning hayoti, ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatini va bosh ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi". Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bizning bosh qonunimizda inson huquqlari alohida e'tiborga olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 29.10.2020. PF-6097-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 06.11.2020 yil. PF-6108-son.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/4597662>.
5. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Иккинчи нашр. – Т.: O'zbekiston, 2022. - 440 б.
6. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. – Т.: Ўқитувчи, 2021. - 182 б.
7. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

